

MAMLAKATDAGI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI VA ULARNING MOLIYAVIY FAOLIYAT TURLARI

Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola ma'lum bir mamlakatning nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyati turlari shu bilan bir qatorda bugungi kundagi ahamiyati va ro'li, yillar kesimidagi statistik ma'lumotlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Tayanch iboralar: NNT, tashkilot, byudjet, multiplikativ, individual, ijtimoiy, Pfeiffer NNT, DPS, inqiroz.

2018-yil 3-noyabr holatiga ko'ra O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar soni 404,7 mingtadan 433,8 mingtaga yetdi.¹ Shulardan davlat ro'yxatiga olingan NNTlar soni 5103tani tashkil etadi.² Nodavlat notijorat tashkilotlari foyda olish maqsadini ko'zlamasa ham, ularning faoliyati doirasidagi asosiy faoliyati yo'nalishlari va loyihalarini moliyaviy qo'llab quvvatlash ularning samarali faoliyati ko'rsatishining shartlaridan biri hisoblanadi

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari milliy qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.³ Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini amalga oshirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda prezidentimiz rahnamoligida ishlab chiqilayotgan mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha mustahkam huquqiy asos va noyob mexanizm bunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining samarali faoliyati ko'rsatishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Natijada ularning soni yildan yilga o'sishi barobarid, faoliyati ko'rsatish sohalari ham sezilarli darajada kengayib bormoqda. Adliya vazirligining „Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi“ tomonidan ma'lum qilinishicha, 1991-yilda respublikamizda 100 ga yaqin NNTlar mavjud bo'lgan bo'sa, 2018-yil avgust holatiga kelib bu ko'rsatgich 9478 tani tashkil etdi.⁴

Nodavlat va notijorat tashkilotlarining budjet sohasiga ham alohida e'tibor qaratmoq darkor. Darhaqiqat, notijorat tashkilotining byudjeti daromad va xarajatlar

¹ © 2008-2022 «Gazeta.uz»


² <https://dilmurad.me/wp-content/uploads/2020/05/NNTlar-va-COVID-19-Dilmurod-Yusupov.pdf>

³ <http://uzbekistan-geneva.ch/nodavlat-notijorat-tashkilotlari-va-jamiyat.html>

⁴ <https://xs.uz/uz/post/nntlar-qajsi-jonalishlarda-va-qandaj-faoliyat-korsatmoqda>

qismlariga bo'linadi. Agar byudjet mavjud bo'lsa, notijorat tashkilotning barcha daromadlari va xarajatlari maqsadli, u yo'q bo'lganda - maqsadli bo'lmagan deb tan olinadi. Shunday qilib, byudjetlashtirish notijorat tashkilotlarning moliyaviy faoliyatini hisobga olish uchun asos bo'ladi. Byudjetlashtirishning ahamiyati shundaki, u kelajakda moliyaviy rejalashtirishni ta'minlaydigan tashkilotning moliyaviy ma'lumotlarini tasavvur qilish imkonini beradi, ya'ni u yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy muammolarni oldindan bilish orqali kompaniya barqarorligiga hissa qo'shadi.

Adliya tizimida ro'yxatga olingan O'zbekistondagi NNTlar soni dinamikasi



Adliya vazirligining ma'lumotlariga asosan, 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 9235 NNT ro'yxatga olingan.

Источник: O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi: raqamlar va faktlar 2017


• Создано с помощью Datawrapper

Yuqorida Adliya vazirligining ma'lumotlariga asosan, 2018-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 9235ta NNT ro'yxatga olingan.

Ushbu ko'rsatkichdan ko'rinib turibdiki, berilayotgan barcha shart-sharoitlardan foydalangan holda mamlakatimizda NNTlar soni yildan yilga oshib bormoqda. Jumladan 2009-yilda 5103tani tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilga kelib keng doirada o'sgan. Masalan, O'zbekiston nogironlar jamiyatining viloyat, tuman va shaharlarda 150 ta filiallari mavjud va ularning har biri alohida NNT hisoblanadi. 2018 yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan odamlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun 613 ta nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda va ularning 150tasi nogironlarning bitta tashkilotining mintaqaviy bo'linmalaridir. Asosan jismoniy nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanadigan nogironlar jamiyati bilan bir qatorda, davlat mintaqalarida o'nlab filiallari bo'lgan Ko'zi Ojiz va Kar-soqovlar jamiyatlari mavjud. Shunday qilib, multiplikativ effekt yaratilib, nodavlat notijorat tashkilotlarining soni

yildan-yilga ortib borayotganga o'xshaydi. Aslida, barcha NNTlarning mintaqaviy filiallarini yagona tashkilot deb hisoblash kerak.⁵

NNTlarning 2018 yildagi faoliyat yo'nalishlari bo'yicha taqsimoti



Источник: Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil institutining "O'zbekistonda "uchinchi sektor" holati: voqelik va rivojlanish istiqbollari", 2018 yil.
* Создано с помощью Datawrapper

Yuqorida esa, NNTlarning 2018-yildagi faoliyat yo'nalishlari bo'yicha taqsimoti keltirilgan. Ko'rinib turibdiki mamlakatimizdagi barcha kerakli faoliyati turlari mavjud va shu bilan birga ular faoliyati yuritishmoqda.

Moliyaviy faoliyatni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, notijorat tashkilotlar ham inqiroz hodisalarining ta'siriga duchor bo'ladilar. Boshqacha qilib aytganda, erishish uchun notijorat tashkilot tomonidan qo'yilgan maqsadlar uchun ushbu tashkilot moliyaviy jihatdan xavfsiz bo'lishi kerak. Bunday moliyaviy xavfsizlik ijtimoiy, ba'zan esa hayotiy muhim xizmatlarni ko'rsatish uchun hayriya yig'ish orqali erishiladi, shuning uchun notijorat tashkilotlar muhtojlarga ijtimoiy xizmatlarni muvaffaqiyatli taqdim etish strategiyasini shakllantirishlari kerak. Inqiroz davrida esa, jamiyat ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy zarbalarga duchor bo'lganda, bunday faoliyat murakkablashishi mumkin. Faoliyatdagi nodavlat notijorat tashkilotlari, agar siyosat o'zgarishi bilan bartaraf etilishi mumkin bo'lgan sohada muammolarga duch kelsa, tashviqot usullaridan foydalanadilar va tashviqot olib boruvchi nodavlat tashkilotlarda (masalan, inson huquqlarini himoya qilish tashkilotlari) ko'pincha ular himoya qilish uchun harakat qilayotgan individual qurbonlarga yordam beradigan dasturlar mavjud.⁶ Har bir sohada tanqidlar mavjud bo'lgani kabi bu sohada ham o'zaro tanqidlar mavjud.

⁵ telegra.ph/Nima-uchun-Ozbekistonda-NNT-ochish-qiyin-01-21

⁶ YuNESKO hayotni qo'llab-quvvatlash tizimlari entsiklopediyasi Entsiklopediya site:uz.wikisvo.ru

Jumladan, NNT ishtirokini o'rganishda Mozambik, Jeyms Pfayfer ularning mamlakat sog'lig'iga salbiy ta'sirini ko'rib chiqadi. Pfayferning so'zlariga ko'ra, Mozambikdagi nodavlat tashkilotlar "mahalliy sog'liqni saqlash tizimini parchalab tashladilar, sog'liqni saqlash dasturlarini mahalliy nazoratiga putur etkazdilar va mahalliy ijtimoiy tengsizlikning o'sishiga hissa qo'shdilar". Ular muvofiqlashtirilmagan holda amalga oshirilishi mumkin, shu bilan parallel loyihalar yaratiladi, ular tibbiy xizmat xodimlarini nodavlat notijorat tashkilotlariga xizmat ko'rsatish uchun odatdagi vazifalaridan chetlashtiradilar. Bu mahalliy tibbiy-sanitariya yordamlarini susaytiradi va hukumatning sog'liqni saqlash sohasidagi agentligini saqlab qolish qobiliyatini yo'qotadi. Pfeiffer NNT va DPS (Mozambik viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi) ning hamkorlikdagi modelini taklif qildi; nodavlat notijorat tashkiloti "rasmiy ravishda qabul qilinadigan mamlakat ichida standartga va amal qilishga rioya qilinishi", "vitrinalar" loyihalari va barqaror bo'lmagan parallel dasturlarni kamaytirishi kerak.⁷

Shunday qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, tashkilotning moliyaviy faoliyati, uning iqtisodiy maqsadlaridan qat'i nazar, faoliyatning eng muhim yo'nalishi bo'lib ko'rinadi, bu esa o'z vazifalarini hal qilish uchun kompaniyaning iqtisodiy muhitda barqarorligini ta'minlashga imkon beradi. Notijorat tashkilotlar, tijorat tashkilotlari bilan bir qatorda, o'zlarining moliyaviy faoliyati samaradorligini ta'minlash uchun, o'tgan yillardagi moliyalashtirish ma'lumotlarini tahlil qilishni hisobga olgan holda, majburiy ravishda moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirishni amalga oshirishlari kerak. Samarali moliyalashtirishni amalga oshirish faoliyati, umuman olganda, notijorat tashkilotlarning ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirishning zaruriy sharti bo'lib, bu beqaror iqtisodiy muhitda ayniqsa muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. © 2008-2022 «Gazeta.uz»
2. <https://dilmurod.me/wp-content/uploads/2020/05/NNTlar-va-COVID-19-Dilmurod-Yusupov.pdf>
3. <http://uzbekistan-geneva.ch/nodavlat-notijorat-tashkilotlari-va-jamiyat.html>
4. telegra.ph/Nima-uchun-Ozbekistonda-NNT-ochish-qiyin-01-21
5. YuNESKO hayotni qo'llab-quvvatlash tizimlari entsiklopediyasi [Entsiklopediya site:uz.wikisvo.ru](http://Entsiklopediya.site:uz.wikisvo.ru)
6. Pfeiffer, J (2003). "International NGOs and primary health care in Mozambique: the need for a new model of collaboration". *Ijtimoiy fan va tibbiyot*. 56 (4): 725–738. [Entsiklopediya site:uz.wikisvo.ru](http://Entsiklopediya.site:uz.wikisvo.ru)

⁷ Pfeiffer, J (2003). "International NGOs and primary health care in Mozambique: the need for a new model of collaboration". *Ijtimoiy fan va tibbiyot*. 56 (4): 725–738. [Entsiklopediya site:uz.wikisvo.ru](http://Entsiklopediya.site:uz.wikisvo.ru)